

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI (Dastlabki ma'lumotlar)

Jizzax viloyatining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra **1424,8 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **14,3** ming kishiga yoki **101,0 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **666,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **46,8 %**), qishloq aholisi soni **758,6** ming kishi (**53,2 %**) ni tashkil etdi.

2021 yil 1-iyul holatiga doimiy aholisi soni
1424,8 ming kishi.





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan
yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi
(2021- yil yanvar-iyun oylarida, ming kishi)**

	2020 -yil	2021-yil*	O'sish sur'ati %
Jizzax viloyati	1395,8	1424,8	102,1
Jizzax sh.	179,1	182,3	101,8
Arnasoy	46,2	46,8	101,3
Baxmal	157,6	161,0	102,2
G'allaorol	173,1	176,7	102,1
Sh. Rashidov	223,1	229,4	102,8
Do'stlik	66,0	67,0	101,5
Zomin	165,1	168,9	102,3
Zarbdor	86,9	89,1	102,5
Mirzacho'l	52,2	53,0	101,5
Zafarobod	50,1	51,0	101,8
Paxtakor	75,0	76,4	101,9
Forish	93,1	94,4	101,4
Yangiobod	28,3	28,8	101,8



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- iyul holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- iyul holatiga eng ko'p aholi soni Sh. Rashidov tumanida 229,4 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,1 % ni) va Jizzax shahrida 182,3 ming kishini (12,8 %), aksincha eng kam aholi soni Yangiobod tumanida 28,8 ming kishini (2,0 %) va Arnasoy 46,8 ming kishi (3,3 %) tashkil etdi.



TUG'ILISH

2021- yilning yanvar-iyun oylarida 18,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,1 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 25,4 promille bo'lgan).



Tug'ilish koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan Zomin tumanida (26,9 promilledan 29,6 promillega) va Jizzax shahar (20,8 promilledan 24,4 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Mirzacho'l tumanida (19,9 promilledan 17,8 promillega) va Yangiobod tumanida (24,2 promilledan 19,2 promillega) kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (2021-yil yanvar-iyun)

	2020 -yil	2021-yil*	O'sish sur'ati %
Jizzax viloyati	17566	18382	104,6
Jizzax sh.	1847	2191	118,6
Arnasoy	504	511	101,4
Baxmal	2390	2381	99,6
G'allaorol	2334	2429	104,1
Sh. Rashidov	3041	3199	105,2
Do'stlik	731	710	97,1
Zomin	2196	2465	112,2
Zarbdor	1170	1181	100,9
Mirzacho'l	514	467	90,9
Zafarobod	568	596	104,9
Paxtakor	856	944	110,3
Forish	1076	1035	96,2
Yangiobod	339	273	80,5



TUG'ILGANLAR SONI

Ma'lumot uchun! tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bola:

8,8 ming kishi

O'g'il bola:

9,6 ming kishi




2021- yilning yanvar-iyun oylarida 18,4 mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar 52,1 %, qiz bolalar 47,9 % ni tashkil etadi.



VAFOT ETGANLAR

2021- yilning yanvar-iyun oylarida 2,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,0 promilleni tashkil etdi, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega ko'paydi (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 3,8 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan oshgan Forish (3,6 promilledan 4,2 promillega) tumanida kuzatildi.






Jizzax viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (2021-yil yanvar-iyun)

	2020 -yil	2021-yil*	O'sish sur'ati %
Jizzax viloyati	2618	2781	106,2
Jizzax sh.	315	366	116,2
Arnasoy	63	73	115,9
Baxmal	335	349	104,2
G'allaorol	373	382	102,4
Sh. Rashidov	452	445	98,5
Do'stlik	98	110	112,2
Zomin	328	331	100,9
Zarbdor	155	168	108,4
Mirzacho'l	72	91	126,4
Zafarobod	75	85	113,3
Paxtakor	132	133	100,8
Forish	165	196	118,8
Yangiobod	55	52	94,5

2021- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 50,9 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,5 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan 0,6 % i, o‘simtalardan 9,8 %, 6,1 % i nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 5,8 % i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 2,0 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 16,8 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)




2021- yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o‘sishi 15,6 ming kishini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,7 ming kishiga ko‘paygan, (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 14,9 ming kishi bo‘lgan).

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 177 nafarni tashkil etib, ularning 53,1 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 25,4 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 9,6 % i tug'ma anomaliyalardan, 1,1 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,7 % i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 0,6 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 8,5 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.


1 yoshgacha vafot etgan bolalarning asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida 1 yoshgacha vafot etgan bolalar 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 9,3 promilleni tashkil etdi, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 9,8 promille bo'lgan).



Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-iyun, ming birlik)



Aholi migratsiyasi (ming kishi)



2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,3 ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 1,2 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)



	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	3,6	5,0
Ko'chib ketganlar	4,8	6,3
Migratsiya sa'ldosi	-1,2	-1,3

Migratsiya saldosini Baxmal (-0,4 ming kishi), G'allaorol (-0,4 ming kishi) va Forish (-0,3 ming kishi), Paxtakor (-0,1 ming kishi) tumanlarida ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlar soniga nisbatan sezilarli darajada balandligi kuzatildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Jizzax shahri (0,01 ming kishi), Sh.Rashidov (0,4 ming kishi) kuzatildi.

"Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi" (72) 221-51-19, (72) 222-81-39